



ERTAK QAHRAMONI SAFARIDA EPIK RAQIB OBRAZINING POETIK

FUNKSIYALARI

Mashrapova Gulsanam, FarDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada folklor asarlari, xususan, ertak janrining yetakchi obrazlaridan hisoblangan epic raqib obrazining safar motivini tarkibidagi vazifasi o‘zbek xalqertaklari misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ertak, syujet, safar, epik raqib, kulminatsiya

Har bir jarayonning o‘ziga xos predikatlari, ishtirokchilari mavjud bo‘ladi. Ular har jihatdan ayni vaziyatni yuzaga keltirish, rivojlantirish, to‘ldirish kabi vazifalarni bajaradi. N.Krinichnaya fikricha, motiv tarkibi subyekt (markaziy personaj), harakat qaratilgan obyekt, harakatning o‘zi (qahramon funksiyasi) yoki holati, rivoyatning lokal va vaqt chegaralari, shuningdek, harakat usulini belgilovchi kuchlardan tashkil topadi[2]. Binobarin, safar motivini ertak kompozitsiyasida boshqa motivlar bilan aloqadorlikda, shu bilan birga, alohida, mustaqil sistema sifatida o‘rganish uning safarga yo‘lovchi, safarga boruvchi (bosh qahramon), yo‘l ko‘rsatuvchi, homiy-ko‘makchi, safardagi raqib kabi obrazlardan tashkil topishini ko‘rsatdi. O‘z navbatida ular ham bir qancha guruhlariga bo‘linishi folklor asarlariga xos jihat - variantlilikni yuzaga keltirishi bilan xarakterlanadi. V.Ya.Propp ta’kidlaganidek, qahramonlar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, bir xil funksiya bajaradilar... Ular bajaradigan funksiyalar favqulodda oz, qahramonlar esa favqulodda juda ko‘p. Bu ertakning ikki tomonlama xususiyatini ko‘rsatadi: bir tomondan ertakning hayratlanarli rang-barangligi, uning xilma-xilligi, bo‘yoqdorligi, ikkinchi tomondan bir xilligi, takrorlanishidir[3]. Proppning butun ertak morfologiyasi bo‘yicha bildirgan mulohazasidan biz tadqiqotimizga tegishli bo‘lgan safar ishtirokchilari funksiyalari tahlilida foydalanamiz. Ya’ni oldinga o‘tib aytish mumkinki, devmi, yalmog‘iz yoki ajdaho, pakana odam, yoyinki biror shaxs – turli tuman ko‘rinishga, turli xususiyatga ega bo‘lsalar-da, bajaradigan funksiyasiga ko‘ra bir nom ostida birlashadilar: safardagi epik raqib.

Ertaklar olamida raqib obrazi xilma-xil bo‘lib, hayotiy-maishiy ertaklarda realistlik obrazlar: qozi, boy, podshoh, vazir, baxil qo‘shni kabilar; hayvonlar haqidagi ertaklarda



ramziy-majoziy obrazlar, sehrli ertaklarda esa ko‘pincha mifologik obrazlar, qo‘shni mamlakat podshohlari, o‘gay ona kabi personajlar raqib funksiyasini bajaradilar. Propp zararkunanda (raqib)ning ertakdagi harakat doirasi zarar yetkazish, jang va kurashning boshqa shakllari, ta‘qibdan iborat ekanini aytadi. Qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, raqib ertakda “faollashtirish” funksiyasiga ham ega. Chunki qahramonning jadal harakati va syujet kulminatsiyasi, asosan, raqib bilan to‘qnashuv sahnasiga to‘g‘ri keladi. Biz tadqiqot doiramizdan kelib chiqib safardagi raqib obrazi tahlili bilan chegaralanamiz. Chunki qahramonning qiziqarli sarguzashtlari aynan safardagi dushman obrazi bilan bog‘liq. Sehrli ertaklarida ushbu vazifani yalmog‘iz, dev, ajdar kabilar bajaradi va o‘zbek folklorshunosligida bu obrazlar maxsus o‘rganilgan, genezisi, poetik vazifasi, syujetdagi o‘rni tekshirilgan[1,4,5] Shunga ko‘ra ushbu obrazlarga alohida to‘xtalmay, tadqiqot doirasida fikr bildirish joiz deb hisoblaymiz. Bizningcha, safardagi raqib xarakter-xususiyatiga ko‘ra quyidagicha:

1. Kuch-qudrat jihatidan qahramonga teng kela olmaydigan, lekin uning rejalariga xalaqit beradigan, asosiy maqsaddan chalg‘itadigan, safarni qiyinlashtiradigan raqiblar. Qahramonni yerosti dunyosiga tushishiga sabab bo‘luvchi pakana odam (“Kenja botir”), yo‘lda tilsimli to‘siqlarni hosil qiluvchi devlar (“Pahlavon Rustam”), qahramonni yelkasiga minib olib, yurishga xalaqit beradigan maxluq (“Mohistara”) kabilar shular jumlasidan. Bunday “yo‘lovchi” raqiblar ba‘zan insonlardan ham iborat bo‘lib, ikki xil ko‘rinishni yuzaga keltiradilar. Ya‘ni, birinchi holatda, qahramon yo‘lida uchragan dushmanlik kayfiyatidagi personajlar, kuch sinashib, undan yengilgach, yaqin yordamchiga aylanishadi. “Qilichqora”, “Qiron og‘a” ertaklari syujeti bunga misol bo‘la oladi. Ikkinchi holatda safarga birga chiqqan hamrohlar keyinchalik raqibga aylanib, turli yomonliklar qilishga intilishadi. Yuqorida tahlilga tortganimiz – kenja ukaga hasad tufayli zarar yetkazuvchi akalar obrazi fikrimiz dalilidir.

2. Qahramon bilan teng kuchli raqib. Tasvirda mubolag‘ali portretga ega dev, yalmog‘iz, dushman podshohning pahlavoni kabi personajlar voqealar kulminatsiyasida, bosh qahramon kuchini to‘laligicha namoyon qiluvchi sahnalarda ishtirok etadilar. Odatda, ular nafaqat qahramon bilan teng kuchli, balki undan ustunroq belgilarga ega bo‘ladi. Olishuv jarayoni uzoq (bir necha kunlab, ba‘zan haftalab) davom etadi va qahramonning



g'alabasi yechimni ta'minlaydi, shu bilan birga, epik safarni nihoyasiga yetkazadi. Agar qahramon raqibni yenggach, safari davom etsa hamda yangi to'siqlarga duch kelsa, u holda uning raqibi ham "yangi"si bilan almashadi.

Ertakda ba'zan qahramonning funksiyasi o'zgarib turadi: dushman do'stga, do'st dushmanga aylanishi mumkin. Masalan, "Anqo" qush ertagida yalmog'iz kampir avval juda qo'rqinchli raqib sifatida tasvirlanadi, lekin u voqealar rivojida yordamchi, mehribon va g'amxo'r buviga aylanadi. "Guluyalar va Qalandarbek" ertagida, aksincha, opa bir yigitga oshiqlik tufayli singlisining dushmaniga aylanadi.

Safardagi raqib obrazi syujetda kulminatsion vaziyatni hosil qiladi, ertakning qiziqarli bayonini ta'minlaydi. Ushbu personajning vazifasi safarda mushkul vaziyatlarni yaratish, tilsimli to'siqlar hosil qilish, qahramonga tegishli buyum yoki shaxsni olib qochish, zarar yetkazishdan iborat. Qahramonning bor mahorati dushman bilan olishuvda namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ertakning asosiy personajlaridan hisoblangan "raqib" obrazi safar motivi shakllantirishda ham o'ziga xos o'ringa ega. Ushbu obraz qahramon idealini namoyon qilish sahnasini yaratadi, uning faol harakatga o'tishini ta'minlaydi. Ertakdagi voqealar shiddati, syujetning qiziqarliligi bevosita ushbu obraz bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жуманиёзов Б.М. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996. – 154 б.
2. Криничная Н.А. Русская народная историческая проза: вопросы генезиса и структуры. Автореф. фил. док. наук. – Петрозаводск, 1991. – С. 10.
3. Пропп В.Я. Морфология волшебной сказки. — Издательство "Лабиринт", М., 2001. – С. 21.
4. Файзиева Д.О. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадиияти): Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2004. – 119 б.



5. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадиий талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996. – 158 б.
6. О‘zbek xalq ertaklari III jildlik. II kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – T.: O‘qituvchi NMIU, 2007. – 350 b.